

**MAQSUD SHAYXZODA VA ODIL YOQUBOVNING TARIXIY
ASARLARIDA MIRZO ULUG‘BEK OBRAZI TALQINI**

N. R. Amanlikova,

dotsent v.b., Toshkent davlat transport universiteti,

Telmanova Diana 2-bosqich RQ-4 guruh talabasi

“Yaxshi kitob haqida gapirish maroqli.

Bu - yuksak va olijanob nasr namunasi.

Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor
bu tarixiy roman meni larzaga soldi...”.

(Chingiz Aytmatov)

“Mirzo Ulug‘bek”, “Ulug‘bek xazinasi” tarixiy asarlarida o‘tmish voqeligini, o‘sha davr hayotini, tarixiy shaxslar siymosi asosli tasvirlangan. **Tarixiy janr** - tarixiy mavzudagi asarlar — adabiyot va san’atdagi asosiy janr yoki mavzulardan biri; tarixiy o‘tmish mavzuida yozilgan asarlar turkumi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri tarixiy o‘tmishda sodir bo‘lgan voqealar, yaqin yoki olis o‘tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan asarlar yaratishdir. Ilmiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, yozuvchi yoki shoir tarixiy mavzudagi asarda tarix haqiqatiga suyangan holda to‘qimadan ham samarali foydalanadi. Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlantirish, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritish maqsadida to‘qima qahramonlar obrazini asarga olib kiradi. Tarixiy mavzuda asar yozuvchi muallifdan tasvir etilayotgan davr hayotini yoki tarixiy shaxsning hayoti va faoliyatini tarix hujjatlari (arxiv materiallari, xotiralar va h.k.) asosida o‘rganish, shu davrning tarixiy koloritini haqqoniy ifodalash, personajlar nutqida o‘sha davr kishilari tiliga xos xususiyatlarni aks ettirish talab etiladi. Yozuvchi yoki shoirning tarixiy mavzuga murojaat etishdan maqsadi, kitobxonlarni tarixiy o‘tmishdagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularda o‘z xalqining tarixiy o‘tmishiga nisbatan hurmat tuyg‘usini uyg‘otish va shu yo‘l bilan ma’rifatli avlodni tarbiyalash; zamondoshlarni tarixiy o‘tmish voqealaridan, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatidagi ibratli tomonlardan saboq olishga undash; bugungi voqelikdagi ayrim noxush voqea va hodisalarga tarixiy o‘tmish voqealarini tasvirlash orqali munosabat bildirishdir. Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek”da , Odil Yoqubov

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

“Ulug‘bek xazinasi”da tarixiy asarga qo‘yilgan barcha talablarni a‘lo darajada bacharishgan.

Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi 1964-yili yozildi, o‘sha yili bu asar Hamza teatri sahnasida qo‘yildi, keyinchalik uning asosida kinofilm yaratildi. “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amir Temur va temuriylar davrida o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan Uyg‘onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug‘bek hayotining so‘nggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o‘rin egallagan mashhur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo‘lganini ham haqqoniy ko‘rsatgan. Shekspirona ko‘lam va harorat bilan yozilgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasining maydonga kelishi o‘zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo‘ldi. Shayxzoda ssenariysi asosida rejissyor L. Fayziev tomonidan yaratilgan “Ulug‘bek yulduzi” (1964) filmi esa keng xalq ommasiga ulug‘ o‘zbek olimi va uning fojiali taqdiri bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

M.Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” dramasi ustida yigirma yildan ortiqroq vaqt ishladi. Bu orada u tarixiy mavzudagi jahon dramaturglarining asarlari bilan tanishib, ularning uslub va mahoratini, ayniqsa Shekspirning mahoratini qunt bilan o‘rgandi. Shekspir, Pushkin asarlarini esa o‘zbek tiliga tarjima qildi. Qolaversa, XV asr O‘zbekiston tarixi, Mirzo Ulug‘bek shaxsiyati, hayoti va ilmiy ishlariga oid manbalar bilan tanishib chiqdi. Ulug‘bek haqida ilmiy maqolalar yozdi. Shu tariqa “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi maydonga keldi.

“Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojeasida o‘zbek xalqi tarixining g‘oyat murakkab, ayni zamonda eng muhim davri qalamga olinib, Ulug‘bekning faoliyati uning markazini egallagan. Barcha voqealar, personajlar, ularning hayoti, taqdiri ana shu obraz atrofida uyushgan. Tobora kuchayib, keskinlashib boradigan voqealar Ulug‘bekning ko‘p qirrali faoliyati, buyuk iste‘dodi va boy ma‘naviy olamiga xos rango-rang fazilatlarini har jihatdan to‘kis tasvirlanishiga xizmat qiladi.

Dramada Ulug‘bek ulug‘ olim, ayni vaqtda adolat va ma‘rifat homiysi, xalqparvar va iste‘dodli davlat arbobi, zamonasining ilg‘or fikrli podshohi sifatida namoyon bo‘ladiki, bu tarixiy haqiqatning aniq ifodasidir. Zotan, Muhammad Tarag‘ay - Ulug‘bek (1394-1449) jahongir bobosi Amir Temur o‘limidan to‘rt yil o‘tgach, ko‘p urush va talashlardan so‘ng poytaxti Samarqand bo‘lgan Movaraunnahrdek

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

katta feodal saltanatning hokimi bo‘lib qoladi. Ammo Ulug‘bek temuriylar sulolasidagi ba‘zi podshohlardan farqli o‘larok, elu yurt farovonligi uchun kurashadi, zamonasining ilg‘or fikrli buyuk olimi va mutafakkiri sifatida shuhrat qozonadi, natijada taraqqiyparvar doiralar va oddiy xalq orasida katta obro‘, izzat-ikrom topadi.

Berilgan ushbu tarixiy ma‘lumotlarga asoslangan Maqsud Shayxzoda ham Odil Yoqubov ham Ulug‘bek obrazini va o‘sha davrni haqqoniy tarixiy aspektlarga yondoshgan holda asar yaratishgan.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov N. Tarixiy shaxs talqini. Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1989.
2. Doniyorov Sh. Tarixiy mavzu va adib mas‘uliyati // O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. № 5/ 46-47.
3. Isayeva Shoir. Tarixiy haqiqatdan badiiy umumlashmaga. Nizomiy nomidagi TDPU Yangi tafakkur va adabiy jarayon ilmiy to‘plami., -T.: 1997.
4. Isayeva Shoir. “Ulug‘bek xazinası” romanida voqealar dramatizmi va ruhiyat tasviri, O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2001. №3.